

## BARGXO'R QO'NG'IZ CHRYSOMELINAE-KENJA OILASI HAQIDA MA'LUMOT

*Matmuratova Gulasal Ismoilovna*

*Ajinyoz nomidagi NDPI tayanch doktoranti*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus sh.*

*Qoraqalpog'iston. Matmuratovag87gmail.com*

Hashortlar ham tabiatning bir qismi bo'lib, u bilan o'zaro mustahkam bog'lanib turadi. Organizmning tashqi muxit bilan o'zora bog'lanishini ekologiya fani o'rganadi. G.G.Yakibsin (1871—1916) to'g'riqanitlilar va qo'ng'izlarni o'rgangan.

Plastinka mo'ylovli qo'ng'izlar may va mart qo'ng'izlaridir. Ular turli daraxtlarning bargi bilan oziqlanadi. Ularning lichinkasi bargi bilan oziqlanadi. Ularning lichinkasi tuproqda 4-5 yil yashaydi. Daraxtlarning nihollari hamda turli o'simliklarning ildizlarini kemirib, o'simliklarga katta zarar etkzadi.[3]

### **Morfoligiyasi va biologiyasi** Chrysomelinae- kenja oilasi

Chrysomelinae- barg qo'ng'izlari (Chrysomelidae) kenja oilasi bo'lib, keng tanali barg qo'ng'iz yoki keng yelkali barg qo'ng'iz deb nomlanadi. U dunyo bo'ylab 3000 ga yaqin turlarni o'z ichiga oladi.[1]

Tanasi yumoloq,ovalsimon. Uzunligi 8-20 mm gacha bo'lgan oligofag bargxo'r hisoblanadi. Chrysomelinae ning ba'zi tur ona qo'ng'izlar yuqori darajada parvarishni ifodalaydi. Ular nafaqat tuxumlari uchun oziq-ovqatga boy muhit yaratadilar, balki tuxumdan chiqqandan keyin ham tuxumni, ham lichinkalarni hioya qiladilar.[4]Tuxum qo'ygich gonapafizning o'zidagina hosil bo'lmay Qo'ng'izlar (Coleoptera) qorin bo'lagi oxirgi segmentining qiyofasi o'zgarib, ichga tortilishi va tuxum qo'yish vaqtida do'ppayib tashqariga chiqishdan ham hosil bo'lishi mumkin.[2] Tuxumlari uzinchuq-ovolsimon sariq va to'qsariq 1.5-2 mm. Tuxumlarini to'p-to'p qilib barglar ostiga qo'yadi. Yosh lichinkalari qoramtir, oqimtir bo'lib uchiraydi. Barglar, tomirlariga tegmasdan barg eti bilan oziqlanadi. Voyaga yetgan lichinkalari o'rmalab yuradi. Bazan shu qadar ko'p bo'ladikiy, ularni o'nlab sonda toppish qiyinchilik tug'dirmaydi. Lichinkasi bezovda qilinganda keskin hidli zaharli suyuqlik ajiratadi. Issiq havoda bu suyuqlik tez bug'lanib ketadi. Lichinkali shoxlarga tegishi bilan havoda zararli bug'lar paydo bo'ladi. Oziqlanishni tugatgan lichinkalar bargda boshini pastga qilib va to'q-sariq pilaga o'raladi.[3] Lichinka terisi g'umbak qornining uchida Burma holda to'plandi. va yoqimsiz zararli hid tarqatishda davom etadi. Shu yo'l bilan o'zini dushmanlardan himoya qiladi. Tabiatda erta bahorda daraxtlar barg ochishi bilan aprel oyida paydo bo'ladi. Barglarda yashaydi va juftlashadi. Urug'langan urg'ochilar 18-34 dondan to'p qilib barglarning osti tomaniga tuxum qo'yadi. Tuxumlarining soni 200-300 taga yetadi.[3]

Tuxumlardan 1-2 haftadan keyin lichinkalar chiqadi va dastlab bargni qisman yeydi, keyin esa faqat bargning tomirlarini qoldiradi. Yosh lichinkalar barglarni teshib tashlaydi. Voyaga yetgan lichinkalarining uzunligi 9-14 mm. Uch hafta o'tgach, bargga osilgan lichinkalari may oyining ikkinchi yarmida g'umbakka aylanadi. G'umbagining 11-15 mm. davri 10 kungacha cho'ziladi. Iyun oyining birichi yarmida g'umbakdan chiqqan yosh imagolar burglar bilan oziqlanadi. Qo'ng'izlar to'q ko'k, qizil, qora rangda, metallga o'xshash yaltiroq.

Qo'ng'izlar daraxtlar bilan qoplangan yerlarda, o'simlik qoldiqlari, xazonlar ostida qishlaydi. Chrysomelinae oilasi qo'ng'izlari o'simliklarning asosiy zararkunandasi hisoblanadi. Ular asosan toldoshlar, karamdoshlar, ranodoshlar o'simliklari bilan ozuqlanadi. O'simlik g'unchalari va gullarining ichki organlari (gul changi, guli, urug'chisi, changchisi, gulbarglari) bilan oziqlanadi.

Bunda o'simlik g'unchalari sarg'ayadi va to'kilib ketadi. Lichinkalari esa gul changi bilan oziqlanadi, ularning soni 3 tadan ortib ketganda esa g'unchalar qurib qoladi va to'kiladi.[3]

#### Adabiyotlar:

1. Zoologiya 1996 J. Urchinov. www.ziyouz.com kutubxonasi.62,
2. Entimologiya 2007 H.X Kimsanboev, S.F. Ergashev, B.A. Sulaymonov, R.SH. O'lmasbayeva(40)
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Chrysomelinae>
4. Reid, Chris A.M. (2006-08-14). "A taxonomic revision of the Australian Chrysomelinae, with a key to the genera (Coleoptera: Chrysomelidae)". *Zootaxa*. **1292** (1): . doi:10.11646/zootaxa.1292.1.1. ISSN 1175-5334. S2CID 88996205.